

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

№:8 (67069)
2016-yil
22-fevral

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



Samarqand shahridagi
13-umumta'lim maktabi rahbari
Nargiza YUSUPOVA va shogirdlari
nashrimizning har bir sonini katta
qiziqish bilan muhokama qilishadi.

«Tong yulduzi» qalbimizning chirog'idir,
O'quvchilar - suggan bilim bulog'idir!



Aziz o'quvchilar, yangilikdan xabaringiz bormi? «Tong yulduzi» 2016-yildan boshlab «Matbuot tarqatuvchi» AJ do'konlarida sotilmoqda! Shuningdek, yil davomida sevimli gazetangizga obuna davom etadi.

Nashr ko'rsatkichi - 198.

POLVONLAR - YURT IFTIXORI

Anchadan buyon Tursunali polvon bilan uchrashib, u haqida maqola yozishni ko'nglimga tugib yurardim. Nima bo'ldi-yu, kunlarning birida o'zlari tahririyatimizga tashrif buyurdilar. Polvonga niyatimni aytganimda, «Bajon-u dil, faqat suhbatni Qibray tumanidagi May qishlog'ida tashkil-lashtirsak. Chunki dorbozlik guruhimiz hozir o'sha yerda tomoshalar qo'ymoqda. O'zingiz ham shogirdlarimning mahoratiga bevosita guvoh bo'lib, taassurotlarinigizni qog'ozga tushirasiz», deb qoldilar. Bu taklif menga ham manzur bo'ldi.

Ertasi kuni May qishlog'i qaydasan, deb yo'lga tushdim. Manzilga yetib borганиmda, qishloq markazidagi maydonga tumonat odam yig'ilgan, ular Tursunali polvon boshchiligidagi dorbozlar, polvonlar, mas-xarabozlarning bir-biridan qiziq chiqishlarini maroq bilan tomosha qilardi. Men ham ular bilan birga, tomoshalardan bahramand bo'ldim. Ayniqsa, Tursunali polvonning 3 yoshli nabirasi Iskandarbekning dor ustidagi ajoyib o'yinlari, Sardorbek nabirasining esa tosh bilan ko'rsatgan betakror chiqishlari juda manzur bo'ldi.

(Davomi 7-betda)

ULAR GERMANIYADA DAVOLANISHADI

Shu kungacha «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Germaniyaning «Friedensdorf International» xalqaro tashkiloti hamkorlikda 12 yoshgacha bo'lgan bemor va nogiron bolalarni davolash va reabilitatsiya qilish maqsadida bir qator xayriya ishlari amalga oshirildi.

2002–2015-yillar davomida yuzlab o'zbekistonlik bemor bolalar terining kuyish asoratlari, tug'ma qo'l-oyoq bo'g'imlari va boshqa tashxislar bilan Germaniyaning nufuzli klinikalarida davolanishdi. Shuningdek, o'tgan yili respublika bo'yicha jami 166 nafar tug'ma lab-tanglay nuqsoni bo'lgan hamda 266 nafar tug'ma oyoq nuqsoni bo'lgan bolalarda jarrohlik amaliyoti o'tkazildi.




Kuni kecha Toshkent xalqaro aeroportida respublikaning turli hududlaridan kelgan ana shunday bemor bolalarni Germaniyaning eng nufuzli klinikalarida davolanish uchun kuzatish marosimi bo'lib o'tdi. Fond va hamkor tashkilotlar tomonidan davolanishga jo'natilayotgan bolajonlarning o'sha onda ko'zlarida cheksiz quvonch balqib turardi.

Jamoliddin ABDULLAYEV

Har bir pedagog ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda beg'ubor qalb egalarining dunyoqarashi, mashg'ulotni o'zlashtirish darajasini e'tiborga olishi ahamiyatlidir.

MASHG'ULOTLARDA MEVALAR MAUZUSI

Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan dars-mashg'ulotlarni noan'anaviy usulda



tashkil etish kutilgan samarani bermoqda.

Navbatdagi amaliyot mashg'ulotini poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 534-MTM da olib bordim. Tasviriy san'at darsini olma haqidagi she'r bilan boshladim. «Mevalar» mavzusi bo'lgani bois, doskaga bog'imizda ko'p uchraydigan mevalar rasmini chizdim. Ular bilan birgalikda B.Ufimskiyning «Nastarin», «Dala gullari» natyurmortlarini o'rgandik. Bolajonlar rassom ijodiy ishida foydalangan rang va tasvirlar yuzasidan savollaringga javob berishdi. Jajji tarbiyalanuvchilar tomonidan «Olma va anor», «Vaza va olma», «Ko'za va olmalar» kabi ajoyib tasvirlar yaratildi. Dam olish daqiqasida «Og'aynilar» barmoqlar mashqini bajarishni ham unutmadi.

Mashg'ulotni yakunlar ekanman, tahlil yuzasidan amaliyotchi o'quvchilarim bilan qizg'in munozara boshlandi. Muhimi, bolalarning qisqa muddatli saboqdan olgan taassurotlari ularning yuz-ko'zlarida aks etgan, bu esa zimmamizga keyingi mashg'ulotlarni yanada qiziqarliroq tashkillashtirishga undaydi.

Sayyora ORIPOVA,
Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchisi

«PAXTAOY»NING ZAVQLI KUNLARI

Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida «Sog'lom ona va bola yili» munosabati bilan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kuni kecha poytaxtimizning Olmazor tumanidagi Gulchehra Husanova rahbarlik qilayotgan «Paxtaoy» nomli 26-maktabgacha ta'lim muassasasida bo'lganimizda, bola tarbiyasi nechog'li muhim vazifa ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik.

Maktabgacha ta'lim muassasasida «Sog'lom ona

va bola yili» munosabati bilan tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan izchil hamkorlik yanada kuchaytirildi.

Yaqinda bu yerda XTMFMTTE maktabgacha ta'lim bo'limi bilan hamkorlikda maktabga tayyorlov guruhi tarbiyachisi M. Nabiyeva, musiqi rahbari G. Azimova boshchiligidagi «Jajji erkatoylar sayohatda» nomli ochiq mashg'ulot namoyish etildi.

Mazkur tadbir bolalarga tevarak-atrofni o'rgatish, nutq o'stirish, matematik tasavvurlarini kengaytirish, shaxsiy gigiyena haqida ma'lumot berish, ular ongiga ona Vatan tuyg'usini singdirish, yo'l harakati qoidalari haqida muhim ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil etilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

Bu borada maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab keng ko'lamdagi ezgu harakatlar yo'lga qo'yilishi barkamol avlodning har tomonlama yetuk inson bo'lib voyaga yetishida asosiy omil bo'lishi, shubhasiz.

Yusuf ABDULLAYEV


«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG»

tanloviga

Dulnozaxon ERKINBOYEVA,
Buxoro DU qoshidagi 3-Qorako'l
akademik litseyi 2-bosqich
o'quvchisi



Behruzbek AHMADALIYEV



Sarvaroy NE'MATILLAYEVA,
Termiz shahridagi
3-umumta'lim
maktabining 4-«G»
sinf o'quvchisi



Muzaffar ABDUNAZAROV

Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchilari

BAYRAMLAR, BELLASHUVLAR, TANLOVLAR...

Siz aziz o'quvchilarning maktabdagi hayotingiz ana shunday qiziqarli tadbirlar bilan yanada zavqli kechadi, shunday emasmi?! Qolaversa, bunday tadbirlar bilimingizni yanada boyitishga, intellektual salohiyatingizni rivojlantirishga, eng

muhimi, o'zingizga bo'lgan ishonchingizni oshirishga xizmat qiladi.

Quyida tengdoshlaringizning maktab hayotidagi lavhalar bilan tanishasiz.

Sahifamizda Andijon viloyati, Ulug'nor tumanidagi 16-ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'quvchilari

Robiya O'RAZALIYEVA,
7-sinf o'quvchisi

ORASTA QIZLAR

44 nafar qizlarimiz «Orasta qizlar» to'garagiga a'zo. Yetakchi opamiz Gulnoza Sotvoldiyeva boshchilik qilayotgan mazkur to'garakda ozodalik va orastalik, jamoat joylarida o'zini tutish, kiyinish, muomala madaniyati, mehmondo'stlik odobidan saboq o'laymiz. Shuningdek, qiz bola uchun juda muhim bo'lgan pazandalik, bichish-tikish sirlarini ham o'rganib boryapmiz.

Qanoatxon MAMASOLIYEVA,
8-sinf o'quvchisi

KO'NGILLI DAM...

Maktab-internatimiz yotoqxonasida yashab tahsil olayotgan o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida har kuni turli ma'rifiy tadbirlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.

Masalan, dushanba kuni o'tadigan «Qiziqarli hangomalar»da o'quvchilar quvnoq sahna ko'rinishlari namoyish etadilar. «Quvnoqlar va zukkolar» turli sport musobaqalari uyushtiriladi. Haftaning juma kunlari bilimdonlar «Zakatov»da bellashadilar.

Dinara XUDOYORJONOVA,
9-sinf o'quvchisi

KATTA TANAFFUSDA

Bizning katta tanaffuslarimiz ham o'zgacha tarzda o'tadi. Bitta sinf o'quvchilari ko'ngilochar dastur tayyorlab, maktabdoshlari e'tiboriga havola etishadi. Yetakchimiz Gulnoza opa boshchiligida tayyorlanadigan bunday quvnoq dasturlar bizga ko'tarinki kayfiyat, kuch bag'ishlaydi.

Mashhura ABDURAHMONOVA,
8-sinf o'quvchisi

TEJOG'LINING ISHI BEJOG'LI

Xalqimizning bu naqli bejiz aytilmagan. Viloyat, tuman miqyosida o'tkaziladigan yaroqsiz temir, qog'oz parchalarini yig'ish tadbirlari bizga bolalikdanoq tejamkorlikni, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikni o'rgatadi. Maktab-internatimiz o'quvchilarining sa'y-harakatlari bilan 3740 kilogramm temir parchalari yig'ib topshirildi. Bu jarayonda faol ishtirok etgan 5-sinf o'quvchilari M. Xolmirzayev, O. Fozilov, 6-sinf o'quvchilari E. Muxtorov, X. Bahridinov, 7-sinf o'quvchilari Yu. Ikromjonov, O. Baxridinov, 9-sinf o'quvchilari X. Rahmonaliyev, Sh. Abdumalikovlar barchaga ibrat ko'rsatishdi.

Undan kelgan daromadga maktab kutubxonasi uchun xarid qilingan kitoblarni miriqib o'qiyapmiz.

Malohat ABDUHALIMOVA,
9-sinf o'quvchisi

MOHINUR

8-sinf o'quvchisi Mohinur Sobirjonova o'tgan o'quv yilida biologiya fanidan o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi. U bu yutug'i uchun Bo'stonliq tumanidagi «Quyoshli» oromgohida dam olib qaytganida o'qituvchilarimizning behad quvonganlarini ko'rib, ustoz uchun shogirdning yutug'idan-da ortiqroq baxt yo'q, degan gapning to'g'riligiga yana bir bor amin bo'lgandik. Shu kunlarda ustoz M. Abdulatipova boshchiligida «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichiga puxta hozirlik ko'rayotgan Mohinurga omad tilaymiz.

Shohrux ABDUMALIKOV,
9-sinf o'quvchisi

SPORTSEVAR BOLALARMIZ

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarimiz Muxlisa Nabiyeva, Ixtiyor Abdug'aniyevlar boshchiligida har kuni ertalab soat 7:30 da o'tiladigan badantarbiya mashg'ulotlari tufayli kun davomida o'zimizni bardam, tetik his qilamiz.

Omonboy TURSUNOV,
8-sinf o'quvchisi

ADOLAT QUTISI

Maktabda qo'lga kiritayotgan yutuqlar o'zimizniki! Maskanimizda «Adolat qutisi» o'rnatilgan. Unda tozalik, mashg'ulotlarning sifati, sinfdan tashqari olib borilayotgan ishlardagi kamchiliklar bayon etiladi. Shu bilan birga, darslarda yo'l qo'yilayotgan xatoliklar yuzasidan o'quvchilar tomonidan bildirilgan e'tirozlar va fikr-mulohazalar jamlanadi. Haftaning har chorshanba kuni quti ochiladi va o'z tasdig'ini topgan kamchiliklar batafsil o'rganilib, bartaraf etish uchun mas'ul xodimlarga topshiriladi.

Bu tadbir bizni yoshlikdanoq zimmamizga yuklatilgan vazifaga o'ta mas'uliyat bilan yondashishga, o'z-o'zimizni nazorat qilib borishga o'rgatadi.



Mana, aziz o'quvchilar, ulug'norlik tengdoshlaringizning hayoti bilan tanishdingiz. Xo'sh, Sizning o'quvchilik damlaringiz qanday kechmoqda? Respublikadagi tengdoshlaringizga ibrat qilgulik qanday yutuqlaringiz bor? Betakror bolalik, o'smirlilik damlaringizning maktab quchog'ida yanada zavqli, maroqli, unutilmas voqealarga boy tarzda kechishi uchun yana qanday tadbirlar uyushtirishni taklif qiliasiz?

Maktublaringizni kutamiz.

F. ABDUSAMAD qizi.
O'z muxbirlarimiz

Maktabimizning «Yosh qo'shiqchilar» to'garagi a'zolari rahbari Ulug'bek Mirzaahmedov boshchiligida «Bulbulcha» bolalar ashula va raqs ansamblida mehmon bo'ldilar.

YOSH QO'SHIQCHILAR «BULBULCHA»DA MEHMON



Ular dasta faoliyati bilan yaqindan tanishib, bolalar estrada san'ati rivoji haqida o'zlarini qiziqtiradigan savollarga atroflicha javoblar oldilar. Xor bo'lib kuylash, unda belgilangan asosiy qoidalar, ularning «Bulbulcha» faoliyatidagi mezonlari shakllanishi haqida ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Uchrashuv davomida to'garak a'zolarining ijodiy ishlari bilan tanishgan Shermet Yormatov ularning kelajakdagi faoliyatiga muvaffaqiyatlar tilab, «Birgalikda kuylaymiz» ko'rsatuvida ishtirok etishga alohida taklif qildi. Shuningdek, to'garak a'zolari va «Bulbulcha» ansambli bilan birgalikda konsert uyushtirishni ham rejalashtirdilar.

Sevara SAIDOVA,

Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani, G'azalkent shahridagi 2-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ZUKKO MUTARJIM

Tahririyatimizning bugungi mehmoni – Namangan viloyatining Norin tumanida tug'ilgan Dilnoza Erkinboeva.

U Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi 27-umumta'lim maktabida o'qib yurgan chog'laridayoq chet tillarni o'rganishga qiziqib qoldi. Ingliz tili fanidan «Bilimlar bellashuvi»ning maktab va tuman bosqichlarida 1-o'rinni egallagan iqtidorli qiz 2014-yilda rus tilidan Fan olimpiadasining viloyat bosqichi g'olibasi bo'ldi.

Buxoro Davlat universiteti qoshidagi Qorako'l 3-akademik litseyiga imtiyozli qabul qilingan Dilnoza bugungi kunda aniq fanlar yo'nalishi bo'yicha 2-bosqichda tahsil olmoqda.

2015-yilda «Biz buyuk yurt farzandlarimiz» respublika festivalida 1-o'rinni egalladi.

– Kitob o'qish jon-u dilim, – deydi Dilnoza biz bilan suhbatda. – Zulfiya, O'tkir Hoshimov, Abdulla Oripov, Deyl Kornegi, Aleksandr Dyuma, Valeriy Sinelnikov, Anna Axmatova, Sergey Yesenin kabi yozuvchi va shoirlarning asarlarini sevib o'qiyman. Keyingi paytda bolalarga mo'ljallangan ertak, hikoyalarni koreys, ingliz va rus tillaridan tarjima qilyapman.

Yaqinda u chet tillaridan qilgan tarjimalarini jamlab, «Adolat ziyosi» nomli kitobini chop ettirdi.


Izlanuvchan qizimiz sport bilan ham yaqin do'st tutingan. Yengil atletika bilan shug'ullanib, «Kamolot kubogi» sohibasi sifatida murabbiylarining ishonchini oqladi.

Dilnozaning mohir tarjimon, yetuk mutaxassis sifatida Vatanimizning gullab-yashnashi va rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'sha olishiga shubhamiz yo'q.

Dilorom HOTAMOVA



H. HAMIDULLAYEV olgan suratlar



DOIMIY HAMROH

Biz sinfimiz bilan «Tong yulduzi» gazetasiga muntazam obuna bo'lamiz.

«Kamolot» faollari Farrux Mahkamov, Mohidil Bekmirzayeva, Nilufar Azizova, Nozima Ergashxo'jayeva, Humoyun Mahmatqulov kabi tengdoshlarimiz bilan undagi har bir maqolani, she'rlarni, boshqotimalarni, ingliz tili sahifasini qiziqib o'qiyamiz. Maktab rahbarimiz Muazzam Shayxova va sinf rahbarimiz Madina Irsova ham sinflarga kirib, «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini o'quvchilar bilan birgalikda muhokama qilishni yoqtiradilar.

«Bolalik kunlarimda...» rukni ostida berib borilayotgan maqolalarni ham zo'r qiziqish bilan o'qib boryapmiz. Hayot so'qmoqlarini yosh-u qariga ibrat bo'larli tarzda bosib o'tgan el ardog'idagi yurtdoshlarimiz hayot yo'li ibrat maktabi bo'lmoqda.

Shahzoda SAYFULLAYEVA,

poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 133-umumta'lim maktabi o'quvchisi

TANDIR QISHLOQ

Surxondaryo qadimdan Alpomish va buyuk Termiziyalar nomi bilan dunyoga mashhur.



Mustaqillik yillarida viloyatimiz chiroyiga chiroy qo'shilib, kundan kunga go'zallashib bormoqda. Xususan, men istiqomat qilayotgan Jarqo'rg'on tumanida ham mislsiz o'zgarishlar bo'lmoqda. Ko'chalarning ravonligi-yu, behisob zamonaviy binolarning qad ko'tarishi fikrimiz dardlidir. Tumandagi 6-bolalar va

o'smirlar sport maktabida 904 nafar o'g'il-qiz sportning voleybol, basketbol, qo'l to'pi, mini-futbol, sport gimnastikasi, kurash, taekvando, boks, dzyudo, badiiy gimnastika turlari bilan muntazam shug'ullanmoqda. Ko'pincha davralarda «Men Tandir qishloqdan», deb aytganimda, qiziqish bilan «Qishloqlarida tandir yasaydimi?», deya so'rashadi. Ammo bizning qishlog'imiz tandir kabobi bilan mashhurdir. Avvallari qishloq aholisi tuya boqib, ularni ko'paytirish bilan shug'ullanishgan. Oradan yillar o'tib, qishloqda paxta zavodi, gilam to'qish, sholi oqlash, elektr payvandlash, yog'och (eshik va sandiqlar yasash), atlas-shoyi to'qish sexi va un tegirmoni ish boshlaganda ma'lum vaqt «Artel» deya yuritildi. Ayni chog'da Jarqo'rg'on «Tandir kabobi» bugun elga mashhur bo'lib bormoqda. Shuning uchun bo'lsa kerak, yaqinda qishlog'imizga Tandir qishloq nomi berildi. Biz bundan rosa quvondik.

Munavvar BOLTAYEVA,

Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani

Do'ppi tikdim ipaklari tillodan...

«Do'ppi tikdim ipaklari tillodan», deb kuylayotgan tengdoshingiz Maftuna Sheraliyeva bu yil 9 yoshga to'ladi.

Hozirda u Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 2-sinfida ta'lim olmoqda. Maftuna besh yoshidan tumandagi musiqa maktabining raqs to'garagiga qatnay boshladi. Raqs sirlarini o'rganayotgan qizaloq Sarvar Ergashev rahbarligida vokaldan ham saboq oldi. Iste'dodli o'quvchi endi tadbirlarda raqs tushish bilan birga qo'shiq ham kuylayapti. Ayniqsa, «Kamalak yulduzlari – 2015» ko'rik-tanlovida uning ijrosidagi «Do'ppi» qo'shig'i hay'at a'zolari tomonidan yuksak baholandi.

«Zamonamiz kuychisi» viloyat ko'rik-tanlovida Maftuna ijrosidagi shoir Zulfiya qalamiga mansub «Fontan oldida» qo'shig'i 1-o'ringa munosib topildi. Yosh bo'lsa-da, milliy folklor yo'nalishida ijro mahoratini o'zlashtirayotgan qizchani o'rgangan qo'shiqlari hozirda 40 tadan oshdi.

Maftuna ayni paytda ustozlari Muhabbat opa Sotvoldiyeva bilan birga buyuk bobokalonlarimiz ijodiga murojaat qilib, yangi qo'shiqlar o'rganmoqda.



NURBEK

Sahnada jarchining ovozi jaranglaydi: Odamlar-u odamlar, eshitmadim demanglar, Temur saltanatida, Umarshayx Mirzo saroyida valiahd farzand dunyoga keldi-i-i-i!



Davlatshodbegim chaqaloq ko'targan Umarshayx Mirzo bilan sahnaga tashrif buyuradi. Qosimbek janoblari bolani qo'lga olib: «Peshonalari keng, qirra burun, ko'zlari tiyrak, boqishlari ma'noli ekan. Men go'dakda ulug' xosiyatni

AJDODLAR ISHINI ETTIRIB DAVOM, HAR ISHDA ULARDAN OLAYLIK ILHOM

seyzaypman. Xalqimizga buyuk bobokalonlardek ulug' zot in'om etilgani rost bo'lsin, yomon ko'zlardan Allohning o'zi asrasin», deya tilak bildiradi...

Ushbu xitoblar buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud kuniga bag'ishlab, poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim maktabida o'tkazilgan «Bobur – dilbar shaxs» mavzusidagi tadbirda o'quvchilar tomonidan yangradi.

Kitobxonlik, ijodkorlik va she'r-xonlikka mehri baland o'quvchilar sahnaga birin-ketin chiqib, bobokalonimiz siymosini ta'rifladilar, fazilatlarini bayon etdilar. Ustozlari «Mehnat shuhrati» ordeni sohibasi, ona tili va adabiyot fani

o'qituvchisi Dilorom Zufarovadan o'rnak olib, bahr-u bayt musobaqasida, savol-javoblarda burro-burro so'zlab, o'z bilimdonliklarini namoyish etdilar. Sahna ko'rinishlarida yorqin lavhalarni gavalantirishga muvaffaq bo'ldilar. Ayniqsa, 5-«B» sinf o'quvchilari Hasan va Husan Inoyatovlar ijrosidagi Bobur g'azallari bilan aytilgan katta ashula, 6-«V» sinf o'quvchisi Parizoda Musayeva ijrosidagi «Munajat» raqsi, Sayyora Hojiyeva rahbarligidagi «Dutorchilar» ansambli a'zolari chalgan diltortar kuylar yig'ilganlar olqishiga sazovor bo'ldi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Mahmuda Badalova, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Nargiza Polvonova, tarix fani o'qituvchisi Ulug'bek Ismoilov hakamlik qilgan ushbu tadbirda 8-«G» sinfi «Eng



yaxshi taqdimot», 8-«E» sinfi «Eng bilimdon sinf», 8-«D» esa «Eng yaxshi sahna ko'rinishi» nominatsiyalari bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritishdi. Maktab rahbari Gavhar Zuhurova tadbirda faol ishtirok etgan o'quvchilarga faxriy yorliqlar topshirdi.

Nodira NAZAROVA

Lesson 75

Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

Check your knowledge (Bilimingizni sinab ko'ring)

- We ... going to school:**
a) are; b) am; c) is; d) be.
- My father is ... home:**
a) of; b) from; c) to; d) at.
- I am ... pupil:**
a) a; b) an; c) at; d) be.
- My house ... very large:**
a) is; b) it; c) are; d) at.
- What do you ... ?**
a) doing; b) does; c) do; d) do/does.
- This is a ball and that is a doll (Find the translation):**
a) ana u koptok, bu ham koptok;
b) bu koptok, ana u qo'g'irchoq;
c) bu qo'g'irchoq va koptok;
d) ana u yerda koptok va qo'g'irchoq bor.

Gulnora TOSHQULOVA,
the pupil of the 9th form in school number 7
in Sirdarya region, Khovos district

From century to a second (Asrdan bir soniyagacha)


- A century – 100 years
- A year – 365-366 days, 12 months, 52 weeks
- A month – 30 days, 4 weeks
- A week – 7 days
- A day – 24 hours
- An hour – 60 minutes
- A minute – 60 seconds

MY DAY ...







Teacher asked for pupils how they spend a day. Sardor answered and told about his one day.
– I wake up and wash my face, clean my teeth and have breakfast. Then I go to school, after classes at 2 o'clock I have extra classes on math. Till 3 o'clock to 4 I have swimming lessons.

– At five I will be at home, change my clothes and help to my mother. We have dinner together with all our family. After that, I'll do my homework and before going to sleep I read belles-lettres (literature books).

Zulfiya NURXO'JAYEVA



How many syllables? (Nechta bo'g'in bor?)

 wheat 1 2 3	 poplar 1 2 3
 grater 1 2 3	 toothpaste 1 2 3
 compass 1 2 3	 stepladder 1 2 3

Tongue twisters (Tez aytishlar)

Great gray goats.

Cheap ship trip.

Clowns grow glowing crowns.

King Kong loved Queen Kate.

Mushtariy RASHIDOVA,
the pupil of school number 3 in Jizzakh city,
Gandumtosh street

Let's find together (Keling, birga topamiz)

Dear pupils find the synonyms to these words and learn by heart the new words.


Necessary, create, occupation, useful, beneficial, make up, work, discover, profession.



Prepared by **Dinora SHAKIROVA**

Mark the verbs (Fe'llarni belgilang)

- Windows are **made** of glass.
- When does the train usually leave?
- She always forgets her purse.
- Every twelve months, the Earth circles the sun.
- She plays ping-pong.
- Birds don't like milk.
- Bobir jogs every day.
- Javohir builds houses for a living.
- They don't need his help.
- Tom thinks it's a good idea.



Davlatbegim daviatli,
Yurishlari savlatli.
O'yinchoq qutlardan,
Poyezd yasar haybatli.

O'zi hali kichkina,
Hech kimdan qilmas gina.
Ko'z oldida tovlanib,
Poyezdi uchar, ana!

Unga shamol yetmaydi,
Uni yomg'ir tutmaydi.
Chunki poyezd yonidan,
Davlatbegim ketmaydi.

Bir kun katta bo'ladi,
Dunyo rangga to'ladi.
Poyezdlarni yeldirib,
Davlatbegim keladi!



OY VA QIZCHA

Yonimga tush, oymomo,
Sen onamga o'xshading.
Xayollari soy momo,
Yo'limga nur to'xshading.

Shamol elaklaridan,
Duv-duv to'kildi yulduz.
Oqshom ertaklarida,
Menman - yo'lga chiqqan qiz.

Yo'l yursam ham mo'l yurib,
Oyga ham yetib oldim.
Yellar bilan yugurib,
Suvlarga quloq soldim.

Bu xayolot, aftidan,
Bilmas had, yo'qdek cheki.
Qo'l uzatsam, kaftimda -
Yarqiroq olmos cho'qqi.

Baland-balandliklarga,
Qadam yetmagan hali.
Oydin yalangliklarga,
Tushdim gullar ekkali...

Oymomojon, oymomo,
Sen onamga o'xshading.
Ertagi ko'p boy momo,
Ona, sizga o'xshadi!...



ONAJONIM DUOSI

Orzu-istaklarning yo'llari uzoq,
Mening yuragimda rang olar har dam.
Onam duo qilar meni o'sha choq,
- Bolam, irodangni tut, - deya mahkam!

Ular duosida baxt-u iqbolim,
Pandlarni yurakdan unutmam aslo.
Onam duosidan zavq olar tanim,
Dilda orzularim o'shandan bajo!

OyguL JAMOLOVA,
Toshkent viloyati, Qibray
tumanidagi 19-umumta'lim
maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi

YUTUQLARIMIZ BISYOR

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasi ijodkorlari!
Biz gazetaning muxlislarimiz. Tengdoshlarimiz yozgan
maqola-yu she'rlarni, ertag-u topishmoqlarni miriqib o'qiydiz.
Ayniqsa, sport sohasida muvaffaqiyatlarga erishayotgan
o'quvchilarning yutuqlaridan qalbmiz g'urur va iftixorga
to'ladi. Bular bizni ham o'z ustimizda ishlashga, izlanishga
undaydi. Bundan ilhomlanib, har bir sohada yutuqlarni qo'lga

kitirishga astoydil kirishganmiz. Bu haqda sizlarga maktub
yo'llashdan sira charchamaymiz. Sizlarga kelgusi
ijodlaringizda omad va muvaffaqiyatlar tilaymiz.

**Salom bilan: Maftuna RASHIDOVA, Muhayyo
ABDUG'ANIYEVA, Shohsanam ISMATOVA,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 7-umumta'lim
maktabining 8-«B» sinf o'quvchilari**

BAHOR, SENI SOG'INDIM

Oppoq dalam uyg'onar qachon,
Yashillikka burkanar qachon?
Quyosh nuri porlar nogahon,
Ko'klamoyim, seni sog'indim.

Bog'laringda gullar yashnasin,
Tog'laringda qushlar sayrasin.
Osmoningda bulut yayrasin,
Binafshalar raqsini aylasin,
Ko'klamoyim, seni sog'indim.

Dalalaring burkanib ko'kka,
Cho'llaringda saksovu'l o'ssa.
Daraxtlaring qiyy'os gullasa,
Bu qandayin ajib tarovat,
Ko'klamoyim, seni sog'indim.

Shohsanam ISMATOVA



FARZAND BURCHI

Tuproq'i zar, suvi gavhar,
Ona zamin - O'zbekiston.
Shu yurtning men farzandiman,
Har go'shasi bog'-u bo'ston.

Navoiy-u Bobur Mirzo,
Uvaysiyalar o'tgan zamin.
Men baxtli yurt farzandiman,
Bundan ortiq nima deyin?

Avval a'lo o'qishda,
Barchaga bo'lay ibrat.

San'at, sport, har ishda,
Ustozlar berar madad.

Buyuk kelajak uchun,
Fido etsam arzir jon.
Madhingni kuylay dildan,
Faxrimsan, O'zbekiston!

Shahrizodabonu KARIMOVA,
poytaxtimizning Yakkasaroy
tumanidagi 144-umumta'lim
maktabining 4-«V» sinf o'quvchisi



O'ZBEGIM QIZLARI

To'lin oydek yuzlari,
Olov yonar izlari.
Chiroylidir o'zlari,
O'zbekogoyim qizlari.

Uvaysiyning izdoshi,
Zulfiyaning sirdoshi.
Nodiraning qardoshi,
O'zbekogoyim qizlari.

O'zbekimni farishtasi,
Uylarining sarishtasi.
Yuraklarning rishtasi,
O'zbekimning qizlari.

Maftuna RASHIDOVA


ORZULARIM QUYOSHI

Soat sakkiz bo'lmasdan,
Tezda yo'lga chiqaman.
Jonajon maktabimning,
Bag'riga oshiqaman.

Qadam qo'ysam bog'iga,
Murg'ak dilim yayraydi.
Azim chinor shoxida,
Turfa qushlar sayraydi.

Maktabim quchog'iga,
Otilaman, chopaman.
Orzularim quyoshin,
Shu maskandan topaman.

Shahribonu TURSUNOVA,
Surxondaryo viloyati, Muzrabot
tumanidagi 7-umumta'lim maktabining
3-sinf o'quvchisi



Qo'ng'iroq chalinishi bilan o'quvchilar gur etib o'zlarini
maktabning oynavand eshigiga urishdi.

Sobit do'sti Qobil bilan darsga kechikib keldi. Devorga
osilgan dars jadvaliga biroq qarab turishdi-da:

- Bizga 4-soat musiqa ekan, - dedi Qobil.

- Ashula darsimi? - dedi Sobit boshini qashib.

- Yaxshi-ku. Algebraga o'xshab boshingni qotirib
o'tirmaysan. Jo'r bo'lib ashula aytaverasan.

- Ashula aytgim kelmasa nima qilay? - dedi Sobit.

Ikki sinfdosh dars o'tadigan xonaga - uchinchi
qavatga ko'tarilishdi, Sobit:

- Kel o'rto-oq... Shu darsga kirmay qo'ya
qolaylik. Yaxshisi, sport zaliga borib, jismoniy
tarbiya o'qituvchisidan ko'ptok so'raymiz,

- dedi zinapoyadan ko'tarilgisi kelmay.

- Ustoz ko'ptok bermaydi. Keyingi
soatda jismoniy tarbiya darsimiz
bo'ladi. Qani yur darsga kiramiz.

...Musiqa o'qituvchisi

Ahmadjon aka

pianino oldida

o'tirganча:

- Qani bola-

lar, o'tgan darsda

« Bulbulcha »

qo'shig'ini o'rgangan edik-a.

Hammamiz jo'r ovozda takrorlaymiz. I-i... bir,

ikki, uch... - deya ashulani boshlashga ishora

qilib pianinoda musiqasini ijro eta ketti.

Bolalar qo'shiqni mahorat bilan ijro etishga kirishdi.

Ahmadjon aka «Yaxshi, yaxshi...», deya pianino chalgancha

o'quvchilarni kuzatishga tushdi. Sobit atayin ovozini

do'rillatib sinfdoshlariga jo'r bo'lmoqda edi. Buni ko'rgan

ustoz qo'shiq aytishdan to'xtashga ishora qilib, unga

yuzlandi:

- Isroilov, senga nima bo'ladi, qo'shiqni buzib aytapsan?!

- dedi notadan nigohini olib.

Ustozning gapi Sobitni esankiratib qo'ydi. U boshini

quyi solib, dedi:

- Bilasizmi, ustoz... - atayin o'qchib-o'qchib yo'talar
ekan, xirillagan tovushda: - Ertalab muzday narsa
yengandim. Tomog'im... tomog'im og'rib qoldi.

O'quvchilar kulib yuborishdi.

- Xo'sh, sizlar nega kulayapsizlar?! - Ahmadjon aka

bolalarni tinchlantirgach, yana unga yuzlandi: - Mayli,

sinfdoshlaring kulsa ham so'zlaringga meni ishintirding.

...Keyingi soat jismoniy tarbiya darsida Sobit sinfdoshlari

bilan ikki jamoaga bo'linib basketbol o'ynay boshlashdi.

Uning jamoasi 19:12

hisobida yengilayotgan

edi. U sinfdoshlariga

kuyinib qichqirardi.

- Qobul, raqibingni

qo'yib yuborma!

Rasul! To'pni uzoqdan

halqaga tashlamay,

sheringingga

oshirmaysanmi?!

Tez-tez Sobitning

ovozi zal uzra yangrab

turardi. Afsus, shuncha

jon kuydirishi zoye ketti.

Dars tugab, kiyimlarini

almashtirib ketayotgan

edi, musiqaga o'qituvchisiga

dusha keldi.

- O'yiningni ko'rdim,

Isroilov, jismoniy tarbiyadan chakki emas ekansan. Ovozning

ham binoyiday yangrab turibdi. Sendan kelajakda nafaqat

sportchi, yaxshi san'atkor ham chiqishi mumkin, - dedi

kulib. - O'zing nima deysan?

Sobit uyatdan lovullaqancha tomog'ini qirib dedi:

- Bilmasam...

- Endi ashula darsida sen bilan alohida mashg'ulot

o'tkazaman, - dedi Ahmadjon aka.

Shu tobda o'qituvchining bu gapi hazil yoki chinligini

Sobit anglay olmasdi.

IZZA
(Hikoya)




(Davomi. Boshi 1-betda)

Tomosha yakunlangach, qahramonimiz meni bir piyola choy ustida suhbatga taklif etdi.

– Oilada yolg'iz farzand bo'lganman, – deya so'z boshladi suhbatdoshim. – Dunyo yuzini ko'rganimda dadam ellikka yaqinlashgan, onam esa qirq ikki yoshda bo'lgan ekanlar. Aka-uka, opa-singillarim yo'qligi uchun mahalladagi bolalar meni turkilar, masxara qilishardi. Doimo tengqurlarim orasida kamsitilib, kaltak yeganim uchun «Bir kun sport bilan shug'ullanib, albatta, kuchli bo'laman», deya ko'nglimga tugib yurardim.

12 yoshimda oila a'zolarim bilan Shohimardon qishlog'iga dam olgani bordik. Imkoniyatdan foydalanib, o'sha yerlik mashhur Lochinbek polvonning oldiga bordim va undan meni shogirdlikka olishini so'radim. U «Juda semiz ekansan, sendan polvon chiqmaydi», deya ortimga qaytarib yubordi. Shunday bo'lsa-da, ko'nglimni cho'ktirmadim. Bir yil o'z ustimda qattiq ishlab, qayta oldiga bordim. Polvon mendagi ishtiyoqni ko'rib, shogirdlikka oldi.



POLVONLAR – YURT IFTIXORI

Shukurki, bugunga kelib, o'zim ham ustozlik maqomiga erishdim, ko'plab shogirdlar yetishtirdim. «Vodilkor do'zbozlar», «Vodil chorini», «Vodillik polvonlar» nomli uchta guruh hamda ikkita ko'chma hayvonot bog'i tashkil qildik. Unda sher, bo'ri, ilon, ayiq kabi hayvonlar bor.

Sizga aytсам, polvonlikni o'ziga yarasha mashaqqati bor. Og'ir toshlar tanamizga jarohat yetkazgan paytlar ham bo'lgan. Shunday kezlarda «Boshqa kasbni tanlasam bo'lar ekan», degan xayol o'tgan. Lekin xalqning samimiy olqishi, keksa otaxon-u onaxonlarning duosi, barcha mashaqqatlarni unutishimizga yordam beradi.

Tosh ko'tarishdan tashqari, kurashni juda yaxshi ko'raman. Surxondaryo, Samarqand, Buxoro, Farg'ona viloyatlarida bo'ladigan turli kurash musobaqalarida kuzatuvchi hakam sifatida qatnashib kelmoqdaman. Qolaversa, chet ellarda o'zbek kurashi bo'yicha o'tkaziladigan turli sport festivallarida

ham ishtirok etaman.

Yaratganga shukur, bugun ishimni davom ettirayotgan shogirdlarim bisyor. Kasbimni tanlagan o'g'il va nabiralari ham xalqimiz yaxshi tanib qolgan. Ayniqsa, nabiram Sardorbek bilan chinakamiga faxrlanaman.

U tosh ko'tarish bo'yicha 4 karra O'zbekiston chempioni. Nabiram 14 yoshida poytaxtimizdagi O'zbekiston Milliy bog'ida o'tkazilgan bayramda o'sha yerdagi poyezdni beliga arqon bog'lab tortgan edi.

Shu o'rinda bir gapni aytib o'tmoqchiman. Ba'zan otanolarning «Farzandimni sport to'garagiga bergan edim, jarohat orttirib oldi. Shifokorlar endi shug'ullanish mumkin emas, deishmoqda», degan gaplari quloqqa chalinib qoladi. Aslida bolani sport to'garagiga berishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidasi bor. Aytmoqchimanki, farzandning yoshiga qarab sport turini tanlashi maqsadga muvofiq.

Masalan, kichkina bola uchun eng birinchi maqbul sport bu yengil atletikadir. Qolaversa, milliy kurashimiz ham ularning salomatligiga xavf tug'dirmaydi.

Tursunali polvon bilan suhbatimiz uzoq davom etdi. U aytgan har bir fikrdan bir olam taassurot oldik. Polvon bobo bilan xayrlasharkanmiz, uning ishlariga omad va zafarlar tilab, ortga qaytdik.

Sa'dullo TURSINOV yozib oldi

CHEMPIONLAR MAKTABI

Bugungi kunda Buxoro viloyatidan ko'plab sportchi yoshlar yetishib chiqmoqda.

Ayniqsa, Olot tumanidagi Bolalar va o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchilari qo'lga kiritayotgan yutuqlari maqtasa arzigulik. Tumandagi 7-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Javlon Xayrullayev kurash bo'yicha o'tgan yilning yozida Respublika turnirida 44 kg vazn toifasida hamda Buxoro shahrida bo'lib o'tgan «Mahallamiz polvonlari» musobaqasi mamlakat bosqichida 46 kg vaznda 1-o'rinni egalladi. Javlon hozirda Xayrulla Abdullayev murabbiyligida yaqinda bo'lib o'tadigan respublika turniriga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Yana bir umidli sportchilardan Javohir Jo'rayev yaqinda poytaxtda bo'lib o'tgan mamlakat chempionatida muay-tay bo'yicha 2002–2003-yillarda tug'ilgan yoshlar o'rtasida 54 kg vaznda 2-o'rinni egalladi.

Zarnigor MUSAYEVA



Toshkent shahrida shaxmat bo'yicha 8 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar o'rtasida mamlakat chempionati yakunlandi.

BIRINCHILIK YANA AKA-UKALARDA!

GIMNASTIKA OMMAVIYLASHMOQDA

Yurtimizda bolalar sportini rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor bugungi kunda samarasin ko'rsatmoqda. Sport gimnastikasi farzandlarimiz, ayniqsa, qizlarni jismoniy va ma'naviy barkamol inson bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega.

Jizzax viloyatidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabida tashkil etilgan 32 guruhda ayni paytda 600 ga yaqin yoshlar ushbu sport turi bilan muntazam shug'ullanmoqda. O'tgan yili viloyat markazida bunyod etilgan yangi sport majmuasi bu sport turining imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Majmua tarkibidagi maxsus jihozlangan zallar, gimnastika saroyi o'quvchilar ixtiyorida.

Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining yig'ilishida soha rivojiga qaratilayotgan doimiy e'tibor yurtdoshlarimizda farzandini har tomonlama barkamol voyaga yetkazishga intilish tuyg'usini orttirayotganini alohida ta'kidlandi. Ota-onalar farzandini maktabgacha ta'lim muassasasiga, maktabga berishda u yerda gimnastika bo'yicha mashg'ulotlar yo'lga qo'yilganini hisobga olishmoqda.

Ayni paytda Jizzax shahridagi o'nta maktabgacha ta'lim muassasasida sportning ushbu turi bo'yicha to'garaklar tashkil etilgan. Bu to'garaklarda shug'ullanayotgan o'g'il-qizlar ixtisoslashgan maktablarning asosiy zaxirasi hisoblanadi. O'ylaymizki, «Sog'lom ona va bola yili»da bu boradagi ishlarimiz keng quloq yozib, o'g'il-qizlarimiz ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi.

Shavkat KAZAKBAYEV

O'n ikki yoshgacha o'g'il bolalar o'rtasidagi bahslarda poytaxtlik Javohir Sindorov

9 ochko to'plab, chempion bo'ldi.

Samarqand Shermuhammadov 6,5 ochko bilan 2-, Mahmudbek Xolmurodov 3-o'rinni egalladi.



O'n yoshgacha

bo'lgan o'g'il bolalar o'rtasida Islombek Sindorov to'qqiz imkoniyatdan yetti ochko jamg'arib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Islombek bilan bir xil ochko to'plagan Fayzulla Halimjonov qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'yicha kumush medalga loyiq topildi. 6,5 ochko jamg'argan Shodiyor Shukuraliyev esa bronza medalni qo'lga kiritdi.

Sakkiz yoshgacha o'g'il bolalar o'rtasida Toshkent vakili Humoyun Begmurodov 7,5 ochko bilan g'olib bo'ldi. Samarqandlik Akobirxon Saydaliyev 7 ochko to'plab kumush, poytaxtlik Alixon Avaxxonov 6,5 ochko bilan bronza medalga sazovor bo'ldi.

12 yoshgacha qizlar bahsida poytaxtlik Yuliya Xegay 7,5 ochko bilan 1-, Jizzaxdan Sevinch Hotamova va poytaxtlik Samira Olimjonova 6,5 ochko bilan kuchli uchlikni yakunladi.

10 yoshgacha shaxmatchi qizlar o'rtasida toshkentlik sportchilardan Maftuna Bobomurodova 1-, Mohinur Habibullayeva va Zuhra Mannopova 7 ochko to'plab, 2- va 3-o'rinni egalladi.

8 yoshli sportchilar o'rtasidagi bahslarda samarqandlik Afruza Hamdamova, navoiylik Zilola Aktamova, Surxondaryodan kelgan Muattar Jo'rayeva uch o'rin bo'yicha sovrindorlar safidan joy olishdi.

Shukrulla G'ULOMOV



«O'zbekiston» NMIUda chop etilgan yangi kitob

Aziz muxlislar, taniqli jurnalist va adiba, «Shuhrat» medali sohibasi, xalq ta'limi a'lochisi **Muhabbat Hamidovaning nomi sizga yaxshi tanish. Bolalarning sevimli gazeta va jurnallarida opaning bir-biridan qiziqarli hikoya va ertaklari, yurtimiz bolalarining hayoti va faoliyati haqidagi maqolalari tez-tez chop etib turiladi.**



HOKILLI ILON

Muhabbat opaning «Maqtanchoq jo'ja», «Izingizdan boramiz», «Sehrgar bola» nomli kitoblarini o'qigan bo'lsangiz kerak. Y a q i n d a «O'zbekiston» NMIUda adibaning yana bir yangi kitobi bosmadan chiqdi. Ajoyib sarguzashtlar, kutilmagan voqealarni o'z ichiga olgan bu kitob «Kokilli ilon» deb ataladi. Kitobning nomini o'qib hayron bo'ldingiz-a? Kitobdagi goh kuldirib, goh o'ylantirib qo'yadigan hikoya va ertaklar ma'naviy olamingizni yanada boyitadi, dunyoqarashingizni kengaytiradi. Va albatta, sizni qiziqtirgan savolingizga ham javob olasiz. Qarang-a, aziz o'quvchilar, ilonning ham kokillisi bo'lar ekan-da?..

Zahro HASANOVA

Mergan Nosir aka Sattorov G'allaorol tumanidagi Tutli qishlog'ida istiqomat qiladi. Ovchilikka qiziqadigan bu inson hovlisining bir chekkasida «Jonli burchak» tashkil etgan. Unda burgut, lochin, qirg'iy kabi o'rgatilgan qushlarni parvarishlaydi. Qanotli do'stlarimiz hayot tarzini o'rganib, ularga g'amxo'rlik qiladi.

Dam olish kunlarining birida yuqori sinf o'quvchilarini olib, Nosir amaki bilan Nurota tog'iga chiqdik. Ovchi amaki o'rgatilgan burgutini ham o'zi bilan olgandi. Yo'lda davom etarkanmiz, kutilmaganda kenglikda tanasining ustki va yon tomonlari sarg'ish, dumining uchi oq bo'lgan tulkiga ro'para keldik.



OVDA

YOQUBBEK chizgan rasm

Abdulla SAIDOV, Jizzax viloyati, G'allaorol tumani

YANGI ADABIYOTLAR KELDI

Toshloq tuman XTMFMT va TE bo'limi tasarrufidagi axborot-resurs markazi yangidan yangi adabiyotlar bilan boyitilmoqda.

Markaz fondida 3186 ta kitob jamlangan. Quvonarlisi, joriy yil boshidanoq tumandagi har bir maktab 87 nomdagi kitobga ega bo'ldi. 43 nomdagi gazeta va jumallarni barcha ta'lim maskanlari kutubxonalariga ARM xodimlari vaqtida yetkazib berishmoqda.



ham intiqilik bilan kutadigan bo'lishdi.

Muhammadjon MAHMUDOV, Farg'ona viloyati

So'nggi vaqtlarda kitobxonlik oyligi doirasida o'tkazilgan «Eng faol kitobxon», «Kitobxon oila», «Farzandimga kitob sovg'a qilaman» loyihalarini o'quvchilar qatori kattalar

DO'STLIK

(Ertak)



Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Chiroyli olmaxon bo'lgan ekan.

U juda maqtanchoq bo'lib, shoxdan shoxga sakrashni bilmagani uchun quyoning ustidan kularkan. Bir kuni olmaxon daraxt tepasida turganida ayiq polvon kelib, daraxtni silkitibdi. Buni kutmagan olmaxon yiqilib tushayotganida quyon bir sakrab uni ushlab qolibdi. Quyon tufayli omon qolgan olmaxon undan uzr so'rab, boshqa maqtanchoqlik qilmaydigan bo'libdi. Shu voqeadan so'ng ular qalin do'st tutinibdi. Ularning do'stligini hech kim buzolmas ekan.



Zaynab NOSIROVA, poytaxtimizdagi 307-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi

Bahrom AKBAROV

HAYVONOT OLAMI ALIFBOSI

(Davomi. Boshi 6-sonda)

«G»ga Gorilla, Gibbon, Daraxtda chopar hamon.



«I»ga Ilon vishillar, Uxtlaganda pishillar.

«J»ga Jo'ra jo'jasi, Tovuq uning onasi.



«V»ga Vizildoq qo'ng'iz, Uchmaydi sira yolg'iz.

(Davomi bor)

TEST

TARIX FANIDAN

1. Neolit bu...

- A) yangi tosh asri;
- B) mis-tosh asri;
- D) qadimgi tosh asri;
- E) o'rtta tosh asri.

2. Yunon - Baqiriya davlati tashkil topgan sanani ko'rsating:

- A) mil. av. III asr boshlarida;
- B) mil. av. III asr o'talarida;
- D) mil. av. III asr oxirlarida;
- E) mil. av. IV asr o'talarida.

3. Miloddan avvalgi 329-328-yillarda O'rtta Osiyo xalqlari Spitamen boshchiligidagi kimga qarshi kurash olib boradi?

- A) Doro I ga;
- B) Tigraxaudalarga;
- D) Iskandar Zulqamaynga;
- E) Kir II ga.

Xosiyat HASANOVA tayyorladi

Bosh muharrir **Feruza ADILOVA**

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumati qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI: Omonulla YUNUSOV, Dilshod KENJAYEV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir Dilorom HOTAMOVA **Rassom** Feruzbek KAMOL o'g'li **Sahifalovchidizayner** Shaxobiddin MAXMADIYEV

Manzilibiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz

Tel/faks: 244-63-08 Tel/faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi - 49019 Buyurtma - S 5217